

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

---

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

Farg'ona,  
2022.

|  |     |
|--|-----|
| <b>T.Egamberdiyeva</b><br>Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....   | 7   |
| <b>R.Safarova, M.Abdullayev</b><br>Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari .....                | 11  |
| <b>J.Obidov</b><br>Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati .....                | 16  |
| <b>F.Madraximova</b><br>Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida .....                      | 21  |
| <b>X.Tojiboyeva</b><br>O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....                           | 26  |
| IQTISODIYOT  |     |
| <b>M.Yuldasheva, A.Kolkanatov</b><br>Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing .....   | 29  |
| <b>S.Ismoilova</b><br>Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi .....  | 34  |
| FALSAFA, SIYOSAT   |     |
| <b>A.Yuldashov</b><br>Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'rnini ..... | 39  |
| <b>D.Raxmatova</b><br>Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida) .....                                  | 47  |
| TARIX  |     |
| <b>B.Matboboyev, A.Aloxunov</b><br>Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari .....  | 53  |
| <b>S.To'raxo'jayev</b><br>Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan .....                        | 58  |
| <b>R.Ahmedov</b><br>Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) .....                            | 63  |
| <b>Sh.Jumayev</b><br>Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun .....   | 70  |
| <b>I.Xo'jaxonov</b><br>Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi .....   | 74  |
| <b>A.Sarsenbayev, N.Turambetov</b><br>Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) .....  | 78  |
| <b>R.Akbarov</b><br>Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi .....                                 | 85  |
| <b>R.Murodaliyev</b><br>So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida .....   | 92  |
| <b>N.Turambetov</b><br>Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim .....  | 98  |
| <b>X.Ergasheva</b><br>1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi .....  | 103 |
| <b>Sh.Xonimov</b><br>Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri .....   | 109 |

**ETNOPEdagogik QADRIYATLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR  
TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH USULLARI VA METODLARI**

**МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У  
УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ЦЕННОСТИ**

**METHODS AND METHODS OF FORMING A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN STUDENTS  
THROUGH ETHNO-EDUCATIONAL VALUES**

**Safarova Roxat Gaybullayevna<sup>1</sup>, Abdullayev Muhammadimin Egamberdiyevich<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Safarova Roxat Gaybullayevna

– Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI bo'lim mudiri,  
p.f.d., prof.

<sup>2</sup>Abdullayev Muhammadimin Egamberdiyevich

– Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Maqolada o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanishning qulay vositalari, usullari va metodlarini ishlab chiqishga harakat qilingan. Ushbu vositalarga, usullarga va metodlarga asoslangan holda o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etilishi ham yoritilgan bo'lib, o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning optimal tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilariga o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanishning qulay vositalari, usullari va metodlaridan foydalanishlari yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

**Аннотация**

В статье предпринята попытка разработать удобные средства, методы и приёмы использования этнопедагогических ценностей в формировании чувства национальной гордости у учащихся. На основе этих инструментов, методов и приёмов также выделена организация педагогических процессов, направленных на развитие чувства национальной гордости у учащихся, и разработана оптимальная система формирования чувства национальной гордости у учащихся. Также учителям общеобразовательной средней школы даются предложения и рекомендации по использованию удобных средств, методов и приёмов использования этнопедагогических ценностей в формировании чувства национальной гордости у учащихся.

**Abstract**

The article tried to develop convenient means, methods and methods of using ethno-pedagogical values in forming a sense of national pride in students. Based on these tools, methods and methods, the organization of pedagogical processes aimed at developing a sense of national pride in students was also highlighted, and an optimal system for forming a sense of national pride in students was developed. Also, general secondary school teachers were given suggestions and recommendations regarding the use of convenient means, methods and methods of using ethno-pedagogical values in forming a sense of national pride in students.

**Kalit so'zlar:** etnopedagogika, milliy g'urur, qadriyat, usul, metod, folklor, estetik did, vizual vosita, sinkretik karakter.

**Ключевые слова:** этнопедагогика, национальная гордость, ценность, метод, фольклор, эстетический вкус, зрительная моторика, синкретический характер.

**Key words:** ethnopedagogy, national pride, value, method, method, folklore, aesthetic taste, visual means, syncretic character.

**KIRISH**

Bugungi kunga kelib, o'quvchilarda vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy o'zligiga sadoqat, urf-odatlar va an'analarni qadrlashga yo'naltirilgan etnopedagogik qadriyatlarni tanlash, tizimlashtirish sohasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'zbek xalqi tomonidan yaratilgan etnopedagogik qadriyatlar, ularning yosh-avlod ma'naviy-madaniy dunyoqarashi, g'ururini tarbiyalashdagi ulkan pedagogik imkoniyatidan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. SHunga ko'ra etnopedagogik qadriyatlardan foydalangan holda o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish ehtiyoji kuchaygan.

Mamlakatimizda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijasida yosh avlodda tarixiy-madaniy dunyoqarashni, milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishning uslubiy-me'yoriy asoslarini tarkib toptirish, o'quvchilarning folklor namunalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'zbek xalqining an'analari va urf-odatlarini o'quvchi yoshlar

ongiga yetkazish vositalari, usullari va metodlarini ishlab chiqish va takomillashtirish yo'nalishida bo'lgan tadqiqotlarga qiziqishning ortganligi kuzatilmoqdi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning qulay usullari va metodlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirishda Respublikamiz olimlaridan V.Y.Zohidov [1], A.Zunnunov[2], N.M.Mallayev[3], N.Masharipova [4], U.Q.Maqsudov[5], O.Musurmonova[6], D.Muqimova[7], I.N.Mo'minov[8], S.Nishonova [9], N.Ortiqov [10], A.Rustamov[11]; M.Salaeva, [12], O.Safarova [13], R.Safarova [14], M.M.Xayrullaev[15], O.Hasanboyeva[16], SH.M.SHomuhamedov[17] T.A.Egamberdiyeva[18], D.Qosimova [19], Z.Qurboniyozova [20], M.Quronov[21]larning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanish ta'lim jarayonida o'ziga xos usul va metodlarni qo'llash talab qiladi. Bunda dastlab quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- o'quvchilarda etnopedagogik qadriyatlar hisoblangan folklor namunalarini o'rganish motivlarini hosil qilish, shu asosda ularni o'zbek xalqining asriy an'analari bilan yaqindan tanishtirish;
- etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarni o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish;
- etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda tarixiy-madaniy tafakkur rivojlanib ajdodlar tajribasidan faxrlanish, uni o'rganishga qiziqish hissi vujudga kelishini ta'minlash;
- etnopedagogik qadriyatlar vositasida shaxsiy sifatlar, estetik did va dunyoqarashni jadal rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish kabilar.

Biz yuqoridagilardan kelib chiqqan holda etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisobladik:

1. O'quvchilarni tizimli tarzda etnopedagogik qadriyatlar hisoblangan folklor namunalari bilan yaqindan tanishtirish, bunda tarbiya, o'qish, adabiyot, O'zbekiston tarixi o'quv fanlarining imkoniyatlari va sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirlardan samarali foydalanish;
2. O'quvchilarga o'zbek xalq ertaklari, dostonlari, rivoyatlar va afsonalarda ifodalangan qahramonlik mazmunidagi lavhalarni ajratish va baholash ko'nikmasini hosil qilish;
3. O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi: folklor namunalari hisoblangan qo'shiqlar, dostonlar, rivoyatlarning mazmunini so'zlab bera olishlari, unda ifodalangan asosiy g'oyani ajrata bilishlari, ijobiy va salbiy qahramonlarning o'ziga xos ishlarini farqlay olishlari va ularga munosabat bildirishlari;
4. Doston va ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini munosib baholay olishlari;
5. Xalq qo'shiqlarining estetik, axloqiy ahamiyati, shaxsni madaniy rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligini bilishlari va anglab yetishlari.

O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladigan vositalarni tanlashda ularning yosh xususiyatlari, ta'lim mazmuni va o'quv predmetining o'ziga xos jihatlarini alohida hisobga olish lozim. Etnopedagogik qadriyatlarni o'z ichiga olgan folklor namunalarini sinflar kesimida taqsimlashda o'quv predmetlari va sinfdan tashqari pedagogik tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish nazarda tutiladi. Bunda o'qituvchining o'quvchilarni etnopedagogik qadriyatlar bilan tanishtirish, shu maqsadda ikkilamchi didaktik loyihalarni tanlash, tizimlashtirish, loyihalash va otanalar bilan hamkorlik qilishga oid kasbiy mahoratini ham rivojlantirishni nazarda tutish kerak.

Biz etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda quyidagilarga ham e'tibor qaratdik. Etnopedagogik qadriyatlar tarkibiy qismi bo'lgan muayyan folklor namunasida o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantirishga xizmat qiladigan syujetning ifodalanganligi, o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda sahna ko'rinishlari, imitatsiyalashgan vaziyatlardan unumli foydalanishga e'tibor qaratilishi, tanlangan xalq og'zaki ijodi namunalarining o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish bilan bir qatorda estetik did, milliy-madaniy dunyoqarash, mantiqiy hamda tahliliy fikrlash, asar qahramonlarini tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantira olishi kabilar.

Folklor namunalari vositasida o'quvchilarda ajdodlarimizning hayot tarzi, dunyoqarashi, madaniyattiga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabat tarkib topadi. Folklor namunalarining shaxs ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi natijasida pozitiv his-tuyg'ular va madaniy dunyoqarash shakllanadi.

## PEDAGOGIKA

Natijada o'quvchilarda turli pedagogik tadbirlar, badiiy kechalar, bayram tomoshalarida folklor namunalarini kuylash, ulardan estetik zavqlanish, xalq o'tmishiga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lish, ajdodlarimizning ezgu amallaridan g'ururlanish, xalq qahramonlarining ezgu ishlarini davom ettirishga rag'bat tarkib topadi. Shunga ko'ra folklor namunalari o'quvchilarni kompleks rivojlantirish imkoniyatiga ham ega.

O'quvchilarda etnopedagogik qadriyatlar vositasida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda muayyan prinsiplarga tayanish samaradorlikka erishish imkonini beradi.

- o'quvchilarga etnopedagogik qadriyatlarni tizimli tarzda taqdim etilishi.

Bunda o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda xalq qahramonligi, madaniyati, e'tiqodiy qarashlari ifodalangan folklor namunalarini tanlashi, tizimlashtirishi lozim.

- O'quvchilarga folklor namunalarini taqdim etishda uning sinkretik xarakteri saqlab qolinishi.

Buning uchun o'qituvchi folklor namunalarini jozibali ovozda o'qib berishi yoki qismlarga bo'lib o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- Etnopedagogik qadriyatlarni o'quvchilarga taqdim etishda davr koloritini ifodalashga xizmat qiladigan rasmlar, illyustratsiyalardan foydalanilishi.

Ushbu prinsipni amalga oshirish uchun asarda jonlangan manzaralarni ko'rgazmali tarzda o'quvchilarga taqdim etish maqsadida, audio, video, vizual vositalardan foydalanish nazarda tutiladi.

O'quvchilarda etnopedagogik qadriyatlar vositasida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar dastlab ertaklarni o'qib, tahlil qilishdan boshlanishi lozim. Chunki bolalar ertaklarni oson o'zlashtiradilar va undagi qahramonlarni xotiralarida yaxshi saqlab qoladilar. Mazkur jarayonda o'qituvchi darsda va darsdan tashqari pedagogik vaziyatlarda o'zbek xalq ertaklari asosida ishlangan multfilmlardan foydalanishi maqsadga muvofiq.

Bu jarayonda o'quvchilar ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini esda saqlab qolib, o'z o'rnida baholaydilar. Ularning ijobiy sifatlaridan rag'batlanib, salbiy xatti-harakatlarini qoralaydilar. O'qituvchi bunday vaziyatdan samarali foydalangan holatda o'quvchilarni bahs-munozara va faol muhokama vaziyatiga olib kirishi kerak.

O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tgan sari ularga taqdim etiladigan xalq og'zaki ijodi namunalari hajmini ko'paytirish va eposlar, dostonlarda tizimli tarzda foydalanish tavsiya etiladi. Qahramonlik dostonlari o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning eng samarali vositasi bo'lganligi uchun ham, o'qituvchi ular yordamida kichik-kichik sahna ko'rinishlarini tayyorlab, mazkur ijodiy jarayonga sinfdagi barcha o'quvchilarni imkon qadar jalb eta olishi lozim. Bunday tadbirlarda o'quvchilar doston qahramonlarining rollarini bajaradilar. Ularning his-tuyg'ulari va kechinmalariga sherik bo'ladilar, doston qahramonlari yashagan davr ruhini his etadilar.

O'quvchilarda etnopedagogik qadriyatlar vositasida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish uzluksiz pedagogik jarayonda amalga oshirilib, bunda darslar bilan bir qatorda darsdan tashqari pedagogik vaziyatlar ham muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bunda pedagoglar etnopedagogik qadriyatlarni o'quvchilarga taqdim etishga xizmat qiladigan tadbirlarning ularda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilishiga e'tibor qaratishlari lozim.

Darsdan tashqari jarayonlarda tashkil etiladigan pedagogik vaziyatlar va tadbirlar o'quvchilarning etnopedagogik qadriyatlarni chuqurroq o'zlashtirib, milliy g'urur tuyg'usini egallashlariga xizmat qilishi nazarda tutiladi. Bunday pedagogik tadbirlar jarayonida o'quvchilarda ajdodlarimizning qahramonona hayoti, madaniyati, xalq o'yinlari, qo'shiqlari, doston va ertak qahramonlariga nisbatan chuqur hurmat va ulardan g'ururlanish tuyg'usi mustahkamlanadi. Mazkur pedagogik tadbirlar o'quvchilar bilan bir qatorda o'qituvchilarni ham izlanishga undab, madaniy dunyoqarashini boyitadi.

Sinfdan tashqari pedagogik tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, mazkur tadbirlarda o'quvchilar ko'proq mustaqil ishlash va o'rganilayotgan hodisani chuqurroq anglashga muvaffaq bo'ladilar. Darsdan tashqari jarayonlarda turli bayramlar munosabati bilan tashkil etiladigan tadbirlarda o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning ta'sirchan vositalaridan biri bo'lgan xalq o'yinlarida bevosita ishtrok eta oladilar. Masalan "Navro'z", "Mehrjon" bayrami bilan bog'liq o'yinlar, "Kitobxonlik kunlari va haftaliklari" shular jumlasidandir.

Sinfdan tashqari tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'quvchilar bilan doston va ertaklardagi voqellikka asoslangan holda kichik-kichik sahna ko'rinishlarini o'ynash ham o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. Doston va ertaklardagi voqealar bayoni ularning davr ruhini anglashlariga ko'maklashadi. Sinfdan tashqari pedagogik jarayonlarda

dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, qo'shiqlar o'quvchilarning madaniy dunyoqarashi va milliy g'ururini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Shu bilan bir qatorda ularning bilish imkoniyatlari kengayadi, kitobxonlik ko'nikmalari rivojlanadi.

Bunday tadbirlarga tayyorlanish jarayonida o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham etnopedagogik qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan folklor namunalari, xalqning urf-odatlarini, an'analari bilan chuqurroq tanishishga muvaffaq bo'ladilar. Xalqning madaniy boyliklaridan faxrlanish tuyg'usiga ega bo'ladilar.

Etnopedagogik qadriyatlarni o'quvchilarga taqdim etish maqsadida tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda bir qator mashg'ulotlarni tashkil etish mumkin. Jumladan, kichik-kichik folklor festivallarini o'tkazish, xalq urf-odatlarini va an'alariga bag'ishlangan viktorinalar, baxshichilik tanlovlarini tashkil etish, dostonxonlik kechalarini o'tkazish, "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" mavzusida kitobxonlik tanlovlarini o'tkazish, "Men xalq qo'shiqlarini sevaman" nomli ijodiy tadbir, "Ajdodlarimiz o'ynagan o'yinlar" nomli sport musobaqalarini tashkil etish kabilar. Amaliy san'at va tarix muzeylariga sayohat uyushtirish.

O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda sinf rahbarlari ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilishlari lozim. Ota-onalarning "Navro'z", "Mehrjon" kabi bayramlarni tashkil etish va o'tkazishdagi ishtiroklarini ta'minlash, milliy an'alar vositasida o'quvchilarni tarbiyalashga bag'ishlangan davra suhbatlari tashkil etish, milliy o'yinlar musobaqasini o'tkazish, "Milliy an'alar va urf-odatlar bilimdoni" tanlovini tashkil etish kabilar shular jumlasidandir. Ushbu maqsadda ota-onalar bilan hamkorlikda tadbir materiallarini tanlash va unga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish nazarda tutiladi. Bunday tadbirlarni ta'lim muassasalarida, muzeylarda, kichik teatlarda tashkil etish mumkin.

Xalq qo'shiqlari va bayramlar, milliy urf-odatlar, etnopedagogik qadriyatlarni o'quvchi-yoshlar ongiga singdirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Tadbirlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilar xalq og'zaki ijodi namunalari osongina o'zlashtirib unda ifodalangan makon va zamon ruhini ilg'ash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ayniqsa, musiqa darslarida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladigan xalq qo'shiqlari, baxshichilik namunalari o'rgatishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shu asosda, sinfdan tashqari vaqtlarda konsert dasturlari, kichik baxshilar tanlovlarini tashkil qilish mumkin.

O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda to'garak mashg'ulotlari ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, adabiyot, tarix, musiqa bo'yicha tashkil etiladigan fan to'garaklarida o'quvchilarga etnopedagogik qadriyatlarni taqdim etish orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Tarix to'garagida esa xalqimizning o'tmishda milliy mustaqillik yo'lida olib borgan jangovar kurashlari haqidagi ma'lumotlarni keltirib, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Shiroq, To'maris haqidagi afsonalarni keltirish mumkin.

Tarix va adabiyot to'garaklarida o'quvchilarda o'zlikni anglash va milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladigan asarlarni mustaqil o'qib tahlil qilish haqida ham topshiriqlar berish nazarda tutiladi.

Musiqa to'garaklarida xalq qo'shiqlari, ularning yaratilish tarixi, baxshichilik san'atining o'ziga xos xususiyatlari, ularda milliy g'urur tuyg'usining ifodalanishi haqida ma'lumotlar berilib xalq qo'shiqlari va baxshichilik namunalari kuylashga o'rgatish maqsadga muvofiq.

Shu tariqa, o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish jarayonida muayyan etnopedagogik vositalardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

### XULOSA

Yuqorida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanishning qulay vositalari, usullari va metodlarini ishlab chiqishga harakat qilingan. Ushbu vositalarga asoslangan holda o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar tashkil etilgan. Shu asosda, o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning optimal tizimini ishlab chiqishga ham ma'lum darajada erishilgan.

Bugungi kunda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanish metodikasi yangi g'oyalar va mezonlar asosida boyitilmoqda. Chunki etnopedagogik qadriyatlardan foydalanish dinamikasi zamonaviy, ilg'or kumulyativ xarakterga ega. Shuning uchun ham etnopedagogik qadriyatlar o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish asosida milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalashning qulay vositasi bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Zohidov V.Y Inson va zamon sadosi. [Ocherklar]. O'zdavnashr, 1961. 231 bet.
2. Zunnunov A., Xayrullaev M., Xotamov N., SHodiyev D. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. - T.: Fan, 1996. - 310 b.
3. Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: O'qituvchi, 1976. – 663 b.
4. Masharipova N.R "SHarq xalqlari pedagogik tafakkurida o'zlik tarbiyasining didaktik vositalari" pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Samarqand 2020.
5. Maqsudov U.Q. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi vositasida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik tizimi" pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Namangan. 2021.
6. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligining muxim omili. - T.: "YOshlar tashkiloti", 2020. – 52 b.
7. Muqimova D. YOshlarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish "Pedagogik ta'lim" 2006, № 4. B. 411.
8. Mo'minov I.N. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
9. Nishonova S. SHarq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped.fanl.dokt. ... diss. - T.: 1998. - 288 b.
10. Ortikov N. Milily va umuminsoniy qadriyatlar asosda o'quvchi shaxsini ahloqiy shakllantirish. Pedagogika fanlari doktori diss..... T. 2000. 305 b.
11. A.Rustamov. <https://kitobxon.com/ru/yozuvchi/a-rustamov>
12. Salaeva M. Xalq pedagogikasida ta'lim tarbiya usullari takomili. Xalq ta'limi 4 (.№ 4.), 106-110, 2013
13. Safarova O. Folklor – bebaho boylik. Saylanma. – T.: Muharrir, 2010. – 360 b.
14. Safarova R.G'., Musaev U., Musaev P., YUsupova F., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari / Monografiya. T.: Fan, 2005. – 255 b.
15. Xayrullaev M.M. O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati. -T.: Fan, 1994. - 77 b.
16. Hasanboyeva O. va boshqalar. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: Ilm ziyo, 2014. – 166 b.
17. SHomuhamedov SH.M. "Bilgamish" va "Alpomish" eposlarining tafovutli jixatlari. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/7505](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7505)
18. Egamberdiyeva.T, Siddiqov.I, Yo'ldosheva.SH. O'zbekiston davlat boshqaruv tizimida xotin-qizlar ishtirokining zamonaviy omillari. Farg'ona. 2020.
19. Qosimova D. Ta'lim texnologiyalari. – T.: Tafakkur qanoti, 2014. – 297 b.
20. Qurboniyozova Z.K. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari (Qoraqalpoq maktablarining VII-IX sinflari misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2002. – 21 b.
21. Quronov M. O'zbekiston umumta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped.fan.dokt. ...dis. - T.: 1998. - 287 b.